RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA O‘QUVCHILARDA PEDAGOGIK KO‘NIKMALARINING KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVI

Jo‘raqulova Saida Akramqul qizi
Guliston davlat pedagogika insituti magistranti
Email: Jo‘raqulovasaida@gmail.com

Annotatsiya. Quyida keltirilgan maqolamizda o‘quvchilarda pedagogik ko‘nikmalarini shakllantirish dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammo ekanligi, “pedagogik ko‘nikma”, “kompetentlilik” tushunchalari, ularning tarkibi, mazkur tushunchalarga nisbatan turli-tuman yondashuvlar, kompetenisyalar va kompetent-lilikning shaxs taraqiyotida tutadigan o‘rni tavsiflab berilgan. Ko‘plab pedagog va psixologlarning yondashuvlari tahlil qilingan. Mazkur tahlillar natijasida ilmiy qarashlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: o‘quvchi, ko‘nikma, kompetensiya, kompetentlilik, shaxs taraqqiyoti, ta’lim jarayoni, bilim, ko‘nikma, malaka, tayanch hayotiy kompetensiya, fanga oid kompetensiya.

Abstract. In the following article, it is stated that the formation of pedagogical skills in students is an urgent socio-pedagogical problem, the concepts of “pedagogical skills”, “competence”, their composition, various approaches to these concepts, the role of competence and competence in personal development. described. The approaches of many pedagogues and psychologists have been analyzed. As a result of these analyses, scientific opinions are stated.

Key words: learner, skill, competence, competence, personal development, ducational process, knowledge, skill, competence, basic life competence, science competence. competence, competence, personal development, educational process, knowledge, skills, competence, basic life competence, scientific competence.

Zamonaviy sharoit jamiyatning har bir a’zosidan ayniqsa yosh avloddan raqamli kompetentsiyani mukammal darajada egallashni talab etadi. Buning asosiy sababi globallashuv jarayonida raqamli texnika va texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanib borayotgani bo‘lsa, uning oqibatida internet, turli ijtimoiy tarmoqlar, axborot va ma’lumotlar oqimining haddan ziyodligidir.

Axborot orqali insonlarning ongini, mafkurasini o‘zgartirish mumkin. Axborot orqali insonlarning dunyoqarashini boshqarish mumkinligi yaqqol ayon bo‘lmoqda. Dunyon axborot

boshqaradi degan gap haqiqatga aylanib bormoqda. Axborotga egalik qilish va uni yetkazish talabga aylanib borayotgan bir pallada axborot maydoni tobora kengayib bormoqda. Axborot turlari orti borishi natijasida axborotning ko‘rinishlari ham tubdan o‘zgarmoqda. Axborot tarqatish manbayi sifatida foydalaniladigan internet tizimi turli xil tasdiqlangan va tasdiqlanmagan axborotlar bilan to‘la. Aynan bu vaziyatda axborot qabul qiluvchilarda axborot olish madaniyati va tahlil qila olish qobiliyatini shakllantirish muhim o‘rin tutadi. Buning uchun jamiyat axborotlashgan bo‘lishi talab etiladi.

Axborotlashgan jamiyat qanday bo‘ladi?Jamiyatning axborotlashuvi–bu ma’lum bir davlat yoki jamiyatda axborot texnologiyalarining keskin rivojlanishi natijasida sodir bo‘ladigan holat. Jamiyatning axborotlashgan bo‘lishi uchun avvalo jamiyatda axborot texnologialari rivojlanishi va talablarga javob berishi lozim. Axborotlashgan jamiyatda axborotning kirib kelish oqimi erkin bo‘ladi. Bu esa milliy mafkuraga ta’sir etish barobarida birqancha ma’naviy tahdidlarni ham tug‘diradi. Har qanday qurolli urushlarning boshlanishida axborot jarayonining ta’siri mavjud. Axborotning xuruji esa urushlarning birinchi qadamidir. Axborotxavfsizligini ta’minlashning bugungi kunda dolzarbligi shu holat bilan belgilanadi. Insoniyat “Axboriy jamiyat” deb atalmish yangi bir davrga qadam qo‘yayotgan ekan, axborot xavfsizligini ta’minlash har doimgidan ham zarur.

Axborot iste’moli madaniyatini shakllanishi davomida odamlarda axborotni saralab olishda bilim va qobiliyatni qo‘llanishi tushuniladi. Mazkur jarayonda axborotlaar kerakli va keraksiz kabi turlarga bo‘linib tahlil qilinadi. Tasdiqlangan ma’lumotlarni qabul qilish jarayoni tezlashadi. Axborotning iste’mol madaniyati bo‘lmagan jamiyatda esa turli tahdidlar va notinchliklar vujudga keladi. Chunki, axborot – bu kuch. Undan yaxshilik va yomonlik maqsadlarida foydalanish mumkin.

O‘quvchilarda axborot saralash qobiliyatini shakllantirish ko‘p tarmoqli ilmiy jurnal faktlarni tekshirish orqali amalga oshiriladi. Bu bo‘yicha bir nechta tavsiyalar mavjud:

- ❖ Ijtimoiy tarmoqda foydalanuvchining sahifasi qachon ochilganligini tekshiring.
- ❖ Foydalanvchining faolligini o‘rganing.
- ❖ Foydalanuvchining boshqa ijtimoiy tarmoqdagi sahifalarini izlang.
- ❖ Yangiliklarni yuklab olgan, nashr qilgan inson bilan bog‘laning.
- ❖ Foydalanuvchining siz bilganlar bilan gaplashayotganini solishtiring
- ❖ Qayerda joylashgani haqidagi ma’lumotlarni solishtiring.
- ❖ Tasvir bo‘yicha qayta qidiruvdan foydalaning
- ❖ EXIF fotosurat ma’lumotlarini tekshiring.

Zamon ruhini ifodalab, kun sayin barcha sohalar amaliyotiga jadal kirib borayotgan axborot texnologiyalarini umumta’lim maktablari ta’lim jarayoniga ham tatbiq etish dolzarb masalalardan biridir. Butun dunyo bo‘ylab axborot tarmog‘i har qanday sohada axborotning hajmi va tezligidan qat’iy nazar, uni istagan miqdorda qabul qilish uchun taqdim eta oladi. Multimedia va Internet texnologiyalarining paydo bo‘lishi axborot texnologiyalarining umumiy ta’lim maktablari ta’lim va tarbiya, muloqot jarayonlarida samarali vosita sifatida foydalanishga keng yo‘l ochib berdi. Axborot texnologiyalarining barkamol shaxsni rivojlantirish, uning mustaqil kasb tanlashi va kasbiy jihatdan o‘z-o‘zini shakllantirish, kasbiy mahoratini o‘stirishda tutayotgan o‘rni va ta’siri ortib borayotganligini inkor etib bo‘lmaydi. Umumiy ta’lim maktablaridagi ta’lim jarayonida axborot texnologiyalari vositasida o‘qituvchi va o‘quvchilar oldida quyidagi imkoniyatlar ochiladi, xususan:

- ❖ axborot yig‘ishning yangi usullarini va ularni qo‘llashni bilib oladilar;
- ❖ bolalarning fikrlash doirasi kengayadi, bilim olishga qiziqishlari ortadi;
- ❖ mustaqil ishlashning roli ortadi, samaradorligi yaxshilanadi;
- ❖ bolani aqliy jihatdan rivojlantirishga, hissiy-estetik doirasini kengaytirishga, ijobiy
- ❖ qobiliyatlarini o‘stirishga yordam beradi.

Kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanib, ta’lim sohasida, o‘quv faoliyatida va o‘quvchilar ijodiy tafakkurini rivojlantirishda yangi imkoniyatlar yaratiladi. Axborot texnologiyalari ta’limni amalga oshish jarayonida hayot bilan uyg‘unlashtirishga imkon beradi.

O‘qitishni kelajakdagi kasbiy faoliyat bilan chambarchas bog‘lash imkoniyati paydo bo‘ladi. Axborot texnologiyalarini qo‘llashda o‘quvchi shaxsining butun imkoniyatlarini amalga oshirishga: kompyuter vositalari orqali bolaning bilishga oid, axloqiy, ijodiy, muloqot qilish va estetikaviy imkoniyatlarini, qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishga intilish lozim. Kompyuter va axborot texnologiyalarini o‘quvchi shaxsini rivojlantirishning to‘laqonli vositasiga aylantirish uchun o‘qituvchining o‘zi axborot texnologiyalari sohasida bilimdon (salohiyatli) bo‘lishi kerak.

Bugungi kun ta’lim ishtirokchilari (o‘qituvchi,o‘quvchi,talaba) doimiy o‘zgarishlar qurshovida, tahsil oluvchilarning o‘qish odatlari ham tabiiy ravishda o‘zgargan, ularning ehtiyojlari va sharoitlari ham o‘n yil oldingi kabi emas. Shuning uchun ta’lim muassasalari o‘quvchi yoshlarning mediasvodxonligini oshirishga, yot g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitetini mustahkam qilishga e'tibor qaratishi juda muhimdir. Bir so‘z bilan aytganda, ta’lim yosh avlod ma’naviy ehtiyojlariga javob beradigan didaktik va xavfsiz bo‘lishi kerak. Ko‘zlangan maqsadga erishish uchun o‘quvchilarning ta’lim-tarbiya jarayonini o‘z zimmasiga oluvchi va ularda asosiy malakalarni o‘zlashtirishlarida yordam beruvchi, yangilangan kasbiy tayyorgarlik, pedagogga xos professional kompetensiyalar bilan bir qatorda raqamli kompetensiyaga ega bo‘lgan o‘qituvchi talab qilinadi.

Yuksak pedagogik mahoratga ega bo‘lgan, ilmiy salohiyatli shu bilan birgalikda AKT dan unumli va keng foydalana oladigan raqamli kompetensiyani egallagan o‘qituvchigina bugungi zamon talabiga javob beradigan, raqobatbardosh, tashabbuskor, intiluvchan, faol ijodiy (kreativ) va tanqidiy fikrlay oladigan , jahon andozalariga mos keladigan kadrlarni tarbiyalay oladi. Shu bois ham Oliy ta’lim muassasalari tahsil oluvchilari, ayniqsa bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishda tanqidiy fikr yurita olishlari katta ahamiyatga ega. Bugungi kunda ta’limni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish, o‘qituvchi hamda o‘quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirish va muntazam tarzda rivojlantirib borish pedagogikaning dolzarb masalalariga kiradi.

Raqamli kompetensiya va yana boshqa pedagogik ko‘nikmalarining kompetensiyaviy yondashuvi haqida fikr yuritishdanoldin, ushbu atamaning ma’nosiga to‘xtalib o‘tsak.

Kompetensiya - lotincha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida “munosib”, “to‘g‘ri keladi” yoki “mos keladi” ma’nolarini anglatadi. O‘z bilim, mahorat va amaliy tajribalarni qo‘llagan holda oddiy va murakkab masalalarni yecha olishga munosib inson deb tushunsa bo‘ladi.

Kompetensiya – o‘quvchilarning ma’lum sohada samarali faoliyat ko‘rsatishlari uchun ta’lim tayyorgarligiga oldindan qo‘yilgan ijtimoiy talab. Kompetentlilik ko‘p qirrali bo‘lib, uning bir necha talqinlari mavjud. Kompetentlilik o‘quvchi tomonidan tegishli kompetensiyalarga ega bo‘lishni anglatadi. Kompetentlilik o‘quvchida tarkib topgan shaxsiy sifatlar va berilgan sohadagi faoliyati bo‘yicha to‘plagan minimal darajadagi bilim, ko‘nikma, malakalari va amaliy tajribalarini o‘z ichiga oladi. Xususiy kompetensiyalar bilan tayanch kompetensiyalar o‘zaro farqlanadi. Tayanch kompetensiyalar o‘quvchining istiqboldagi hayotiy-ijtimoiy faoliyati modeli hisoblanadi. O‘quvchilar muayyan bilim, ko‘nikma, malaka va tajribaga ega bo‘lgach, o‘zlari egallagan kompetensiyalarni faoliyatlari orqali tatbiq eta oladilar. Tayanch kompetensiyalar ko‘proq o‘quvchining istiqboldagi ijtimoiy faoliyati uchun zarur hisoblanadi. Xususiy o‘quv fani doirasida o‘zlashtiriladigan kompetensiyalar esa, asosan, o‘quv va istiqboldagi kasbiy faoliyat samaradorligini ta’minlaydi.

Kompetensiyalar har bir mamlakat xalqining turmush tarzi, madaniy, ma’naviy hayoti, an’analaridan kelib chiqqan holda shakllantiriladi. O‘quvchilarda shakllantiriladigan kompetensiyalar kreativ, ya’ni ijodiy yaratuvchilik xarakteriga ega bo‘lib, ularni muntazam faollikka undaydi. Bunday kompetensiyalar sirasiga kommunikativ, axborotlar bilan ishlash, o‘zini o‘zi rivojlantirish, ijtimoiy-emotsional va fuqarolik kabilarni kiritish mumkin. O‘quvchilarda kompetensiyalardan foydalanish tajribasini hosil qilishga alohida e’tibor qaratish lozim. Buning uchun o‘quv dasturlari, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalarini kompetensiyaviy yondashuv asosida loyihalash, o‘qituvchilar tomonidan tanlanadigan ikkilamchi loyihalar tarkibiga kompetensiyalarni hosil qilishga xizmat qiladigan o‘quv materiallari, ta’limiy

topshiriqlarni kiritish, raqamli didaktik vositalarni ishlab chiqishga xuddi shu nuqtai nazardan yondashish alohida dolzarblik kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ta’limning uzluksizligi, barkamol shaxsni tarbiyalashga yo‘naltirilganligidan kelib chiqqan holda umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limida o‘qitiladigan umumta’lim fanlari mazmunining izchilligini ta’minlash maqsadida tayanch kompetensiyalar hamda har bir o‘quv fani mazmunidan kelib chiqqan holda fanga oid kompetensiyalar belgilab berildi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tayanch hayotiy kompetensiyalarni shakllan-tirishda umumiy va xususiy yondashuvlarni aniq hisobga olish va mavjud metodologik yondashuvlarga tayangan holda mazkur hodisaning nazariy-didaktik asoslarini ishlab chiqish pedagogika fani oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi.

So‘nggi yillarda raqamli ta'lim muhitida o‘quvchilarda pedagogik ko‘nikmalarni shakillantirish tushunchasi pedagogikada keng qo‘llanilmoqda. Ta’lim amaliyotida tez-tez qo‘llanilayotgan ushbu atama ta’lim mazmunida ustuvor o‘rin egallamoqda. raqamli ta'lim muhitida o‘quvchilarda pedagogik ko‘nikmalarni shakillantirish tayanch tushuncha sifatida zamonaviy pedagogikaning ilmiy tushunchalari tarkibiga singish bosqichlarini o‘tamoqda. Mazkur tushunchaning o‘ziga xos jihati uning pedagogika fanida eskirib qolgan tushunchalar bilan o‘zaro qiyoslashni taqozoqilishidadir.

Biz o‘z tadqiqotimiz davomida raqamli ta'lim muhitida o‘quvchilarda pedagogik ko‘nikmalarni shakillantirish doirasiga kiradigan va u bilano‘zaro aloqador bo‘lgan tushunchalarni izohlashga harakat qilamiz. Ular kompetensiya, kompetentlilik, kasbiy kompetentlik, pedagogik ko‘nikmalarni shakillantirish kabilar. Shu bilan bir qatorda biz tadqiqotimiz davomida pedagogik ko‘nikmalar, kompetentlilik va tayyorlik, kompetensiya hamda bilim, ko‘nikma, malakalarning har biri ustida fikr yuritishga harakat qildik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 6 апрелдаги ―Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълимининг Давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида‖ги 187-сон Қарори //www.lex.uz

2. Axmedova M.T.Pedagogik konpetentlik (uslubiy qo‘llanma): 5110900 – Pedagogika va psixologiya / -T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2018. - 80 bet.

3. Бермус А.Г. Проблемы и перспективы реализации компетент-ностного подхода в образовании. www.eidoc.ru. 2005, 09, 10.

4. Зимняя И.А., И.А. Ключевных. Компетенции – новая парадигма результата образования. quality.petrsu.ru